

RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'ZBEKISTONDAGI HOLATI

Toshov M.H.

Osiyo xalqaro universiteti.

M.Dj. Bobojonova

Osiyo xalqaro universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15295142>

***Annotatsiya.** Butun dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va odamlar hayotiga jadal kirib boryapti. Uni joriy etishga o'z vaqtida kirishgan davlatlar rivojlanib, aksincha, eskicha ish tutayotganlari taraqqiyotdan orqada qolyapti. Rivojlangan mamlakatlar raqamli iqtisodiyot yordamida yaratiladigan qo'shilgan qiymatning sezilarli darajada katta qismiga da'vogar bo'lgani holda, sust taraqqiy etgan davlatlarning bu jarayonda o'z ulushiga ega bo'lishi tobora imkonsiz bo'lib boraveradi.*

***Kalit so'zlar:** Raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, elektron darslik.*

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bugungi kunning va yaqin istiqbolning eng muhim vazifasiga aylangan. Prezidentimizning 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2025 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish pirovardida korrupsiyaga barham berish imkonini berar ekan, barcha jabhalarda bo'lgani kabi mamlakatimiz ta'lim tizimida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar bo'lishi muqarrar. Iqtidorlarni tanlash va tarbiyalash, ularni kasbga, ilm-fanga to'g'ri yo'naltirish mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa buyuk ajdodlarimizga munosib vorislarni tarbiyalash, bu ulug' zaminda takror va takror mutafakkirlar, zabardast olimlar yetishib chiqishiga sabab bo'ladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "Uyg'onish davri baribir bo'ladi, o'shanda yangi Ulug'beklar dunyoga keladi..."

Davlatimiz rahbarining uzoqni ko'ra bilishlari va kelajakdagi yuksak marralarga erishish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ortidan yuz berishini teran anglab, raqamli iqtisodiyotsiz milliy iqtisodiyotning kelajagi yo'q ekanligini ta'kidlashlari, xususan, hokimlar faoliyatiga baho berishning yangi mezoni sifatida raqamlashtirish qay darajada yo'lga qo'yilganligini belgilab berishlari bejiz emas.

Yana bir muhim jihati, avvalo aholi eng ko'p to'qnash kelayotgan sohalarni raqamlashtirish, odamlarning og'irini yengil qilishga ustuvorlik qaratish lozimligiga alohida e'tibor berilyapti. Shu maqsadda sog'liqni saqlash, kadastr, ijtimoiy himoya, qishloq xo'jaligi, ta'lim yo'nalishlarini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan loyihalar belgilab olindi. Xususan, "elektron poliklinika", "elektron kundalik", "elektron darslik", "o'qituvchilarni baholash" tizimlarini barcha hududlarda joriy etish ana shular jumlasiga kiradi.

Boshqa tomondan, sanoat 4.0 inqilobiga tayyorgarlik rivojlangan davlatlar o'rtasida yuqori tus olgan va bu yangi davrda an'anaviy pul va to'lov tizimlari samara bermay qo'yadi. Buning natijasida moliyaviy vositachilarsiz, tezkor, ishonchli, shaffof to'lovlarni kafolatlaydigan blokcheynga asoslangan mutlaqo yangi to'lov tizimiga ehtiyoj ortadi.

Shunday ekan, monetar organlar ham mustaqil pul-kredit siyosatini saqlab qolish maqsadidi o'zining milliy raqamli valyutasini joriy etish borasida aniq strategiyaga ega bo'lishi talab etiladi.

Prezidentimizning 2020 yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "joriy yilda matematika, kimyo-biologiya, geologiya kabi yo'nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha shart-sharoit yaratib beriladi", deyilgan. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda matematika fanining roli muhim ekanligini ta'kidlash joizdir. Shu o'rinda, nemis klassik faylasufi Immanuel Kantning "Fan tarkibida matematika qancha bo'lsa, shuncha haqiqat bor", degan obrazli fikrini raqamli iqtisodiyotga nisbatan ham aytsa bo'ladi, deb o'ylayman.

Agar matematik modellashtirish va informatikadan o'rinli foydalanilsa, juda murakkab jarayonlarning ham matematik modelini yaratish mumkin bo'ladi. Matematik modellar esa, tadqiqot uchun qulay, ishonchli va tejamlidir. Matematik metodlar iqtisodiy fanlarning tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, qator iqtisodiy modellar yaratilgan. Shu o'rinda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga ega bo'lgan tadqiqotchilarning deyarli barchasi matematik modellashtirish metodlaridan foydalanib, yutuqqa ega bo'lganlari sir emas. Bu olimlar qatoriga D.Xiks, R.Solou, V.Leontev, P.Samuelson, L.Kantanovich va boshqalarni keltirish mumkin.

O'zbekistonda matematika fanining nufuzi jahon talabi darajasida ekanligi quvonarli holdir. Ayniqsa, akademik Shavkat Ayupov rahbarlik qilayotgan ilmiy-tekshirish institutida olib borilayotgan tadqiqotlar tahsinga loyiq. Faqat u tadqiqotlarni amaliyot bilan bog'lash, fanning yutuqlaridan amaliy foydalanish kabi muhim masalalar o'z yechimini kutmoqda.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot uchun bevosita zarur axborot texnologiyalarini (IT) qo'llash, dasturlash ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor talab etiladi. Bu borada respublikamizda keng aholi qatlamini masofaviy maxsus onlayn-portal orqali IT-yo'nalishlari bo'yicha tayyorlashga yo'naltirilgan yirik loyiha "Bir million o'zbek dasturchi"ning o'rni beqiyos

ekanligini e'tirof etish joiz. Bu esa, o'z navbatida, raqamli iqtisodiyot sharoitida global mehnat bozorida eng dolzarb yo'nalishlarda munosib o'rin egallash imkonini beradi.

Ekspertlarning fikricha, 2018 yildan boshlab yirik banklarning qariyb 15% dan ortig'i o'zlarining ish faoliyatida Blockchain texnologiyasidan foydalanishni boshlab yuborishdi. Bunga sabab qilib, Blockchain texnologiyasining nisbatan endigina yaratilganiga qaramasdan, uning mavjud biznes jarayonlardagi inqilobiy o'zgarishlarni qamrab olgani moliya bozorlari ishtirokchilari orasida ulkan qiziqish uyg'otganini ko'rsatish mumkin.

Blockchain texnologiyasi moliya bozorining ko'pgina tarmoqlarini raqobatbardoshligini va yuqori salohiyatini oshirish imkoniyatini namoyish etadi. Kelajakda moliya bozorida Blockchain texnologiyasini joriy qilishga eng jozibador tarmoq bo'lib investitsion banking va moliyaviy tranzaksiyalarni boshqarish hisoblanadi. Blockchain texnologiyasini keng qo'llash mumkin bo'lgan tarmoqlarga banklarning chakana operatsiyalarini, sug'urta, ko'chmas mulkka investitsiyalar va faktoringni misol qilib keltirish mumkin. Shu bilan birga, Blockchain texnologiyasini moliya bozorlarini rivojlantirishdagi mavjud barcha muammolarning yechimi sifatida qarash noto'g'ridir. Hozirgi vaqtda Blockchain texnologiyasidan moliya bozorlarida foydalanishni tartibga solishning huquqiy asoslari oxirigacha to'liq ishlab chiqilmagan va bu borada nihoyasiga yetmagan, o'zini yechimini kutayotgan ko'plab masalalar turibdi.

Ayni paytda, banklar va Fintech kompaniyalari hamkorligi yangi imkoniyatlarni yuza keltiradi, deb ta'kidlovchilar ham topiladi.

Bunday fikr egalari quyidagilarga asoslanadi:

- Fintech innovatsiyalari yangi bank faoliyati va modellarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi;
- Moliyaviy xizmatlar portfeli diversifikatsiyasini yaxshilaydi;
- Yirik banklar va Fintech startaplari bir-birini to'ldiradi va yangi qiymat yaratish imkonini yuzaga keladi.

Bundan tashqari, Bank va Fintech hamkorligi natijasida quyidagi risklarga ham duch kelish mumkin:

- Madaniyat mosligi masalasi;
- Kiberxavfsizlik muammolari;
- Hamkorlikni samarali amalga oshirish uchun malakali xodimlarni yollashdagi qiyinchiliklar;
- Investitsiya risklarining yuqoriligi;
- Huquqiy risklar Fintech funksiyalarini integratsiya qilishning murakkabligi.

Ta'kidlash lozimki, jadal rivojlanayotgan Fintech harakatiga nisbatan banklar quyidagi yo'nalishda javob qaytarmoqda:

- Fintech startaplarini inkubator va akselerator dasturlari orqali rag'batlantirish;
- Venchur fondlari orqali Fintech startaplariga investitsiya kiritish;
- Fintech kompaniyalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- Fintech kompaniyalarini tarkibiga qo'shib olish;
- O'zining Fintech kompaniyalari faoliyatini yo'lga qo'yish.

Fintech startaplariga investitsiyalarning AQSh tajribasi ko'rsatishicha, AQSh banklari blokcheyn, ma'lumotlar tahlili, moliyaviy xizmatlarning dasturiy ta'minoti, to'lovlar va hisob-kitoblar bilan bog'liq Fintech startaplariga ko'proq investitsiya kiritmoqda.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot va uning texnologiyalari a'nanaviy moliyaviy xizmatlar bozorini "qo'porib tashlash" salohiyatiga ega. Bu esa tijorat banklaridan raqamli transformatsiyani jadal amalga oshirish, Fintech kompaniyalari bilan hamkorlikning samarali yo'nalishlarini yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

XULOSA

Globalashuv sharoitida tashqi migratsiya, xalqaro savdo va kapital harakati, turizm, xorijiy investitsiyalar, axborot texnologiyalari rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, ochiqlik, xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash imkoniyatlari yaratildi. Bunga mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasining o'sishi misol bo'la oladi. Elektron hukumat, elektron hukumat, telekommunikatsiya, internet, internet kabi ko'plab atamalar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. IT bizning kundalik hayotimizning barcha sohalarini qamrab oladi.

Ma'lumki, bugungi kunda qo'shimcha qiymat yaratishda raqamli iqtisodiyot ham muhim o'rin tutadi. Turli xil algoritmlar, jarayonlar va raqamli axborotlar korporativ biznesning strategik rivojlanishining asosiy omiliga aylanmoqda. Raqamli nomoliyaviy omillar banklarning raqobatbardoshligini belgilaydi va ularning samaradorligiga ta'sir qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abbosova, A., & Toshev, M. H. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOT–MAMLAKAT IQTISODIYOTINI TARAQQIY ETISHIDAGI ASOSIY OMIL SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 4(2), 379-386.

2. Toshov, M. (2025). STATE PROGRAMS IN DEVELOPMENT AND PLANNING OF REGIONAL INFRASTRUCTURE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1).
3. Toshov, M. H., & Nizomov, S. (2025). O'ZBEKISTON BANK-MOLIYA TIZIMI. *Modern Science and Research*, 4(3), 194-201.
4. Bobojonova, M. J., & Toshev, M. H. (2025). INKLYUZIV YASHIL IQTISODIYOT VA UNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(6), 197-205.
5. Bobojonova, M. J., & Toshev, M. H. (2025). YASHIL TRANSFORMATSIYA: BARQARORLIKNING YANGI DAVRI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(5), 102-110.
6. Bobojonova, M. J., & Toshev, M. H. (2025). YASHIL IQTISODIYOTDA BIOXILMAXILLIK VA BIOXILMA XILLIKNING AFZALLIK TOMONLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(5), 170-178.
7. Hakimovich, T. M. (2025). HUDUDLARNI STRATEGIK REJALASHTIRISH VA BOSHQARISHNING ASOSIY BOSQICHLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 225-232.
8. Hakimovich, T. M. (2025). HUDUDLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 157-166.
9. Hakimovich, T. M. (2025). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI YO'LGA QO'YISH VA MARKETING STRATEGIYALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 193-205.
10. Hakimovich, T. M. (2025). O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 224-233.
11. Hakimovich, T. M. (2025). STRATEGIYA–HUDUDLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OBYEKTI SIFATIDA. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 276-283.
12. Bobojonova, M. J., & Toshev, M. H. (2025). JAHON BOZORIDA YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH TENDENSIYASI: FAKTLAR VA KO'RSATKICHLAR ASOSIDA TAHLIL. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(4), 120-128.

13. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, 2(12), 470-476.
14. Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 112-121.
15. Hakimovich, T. M. (2025). O 'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG 'BATLANTIRISH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIVAVIY VOSITALAR TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 141-150.
16. Quدراتова, G. (2025). THE IMPORTANCE OF ECONOMETRIC RESEARCH IN STUDYING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 305-307.
17. Sodiqova, N. T., & Yuldasheva, H. (2025). IQTISODIYOT FANINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Modern Science and Research*, 4(3), 182-187.
18. Alimova, S. (2025). SPIRITUALIZATION OF STUDENTS THROUGH FOLK PEDAGOGY DEVELOPMENT TECHNOLOGIES. *Академические исследования в современной науке*, 4(5), 118-122.
19. Khalilov, B. (2025). GLOBAL ECONOMIC INFLUENCES IN THE USA. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(2), 644-647.
20. Toshov, M. (2025). STATE PROGRAMS IN DEVELOPMENT AND PLANNING OF REGIONAL INFRASTRUCTURE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1).
21. Ikromov, E. I., & Safarova, J. R. (2025). INNOVATSIYALAR XALQLARNI QASHSHOQLIKDAN QUTQARISH OMILI SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 4(3), 156-161.
22. Azimov, B., & Mukhiddinova, N. (2025). THE INTERDEPENDENCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND BUSINESS COMPETITIVENESS. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 103-109.
23. Raxmonqulova, N., & Muxammedov, T. (2025). IQTISODIY BILIMLARNING INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHDAGI AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI. *Modern Science and Research*, 4(3), 207-212.
24. Shadiyev, A. (2025). EDUCATION MANAGEMENT IN PRIVATE UNIVERSITIES IN UZBEKISTAN: DEVELOPMENT STRATEGIES, CHALLENGES AND PROSPECTS. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 308-313.

25. Naimova, N. (2025). MANAGEMENT OF THE INNOVATION PROCESS IN ENTERPRISES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 302-304.
26. Supiyevna, B. M. (2025). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA «G ‘AZNACHILIKNI JORIY ETISH» KONSEPSIYASINING YARATILISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(6), 49-54.
27. Jumayeva, Z. (2025). FEATURES OF STRATEGIC MANAGEMENT OF A TOURIST COMPANY. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 297-301.
28. Bobojonova, M. J. (2025). ISHLAB CHIQRISH VA UNING IQTISODIYOTDAGI O ‘RNI. *Modern Science and Research*, 4(3), 144-150.
29. Jumayeva, Z. Q., & Nurmatova, F. S. (2025). BANKLARARO RAQOBATNING PAYDO BO ‘LISH TARIXI VA NAZARIY YONDASHUVLAR. *Modern Science and Research*, 4(3), 361-367.
30. Ibragimov, A. (2025). TAX SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: GENERAL DESCRIPTION. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 290-293.
31. Djurayeva, M. (2025). FEATURES OF THE ORGANIZATION OF PERSONNEL MANAGEMENT IN MODERN ORGANIZATIONS AND ENTERPRISES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 287-289.
32. Igamova, S. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 27, 27.
33. Raximova, L. (2025). THE IMPACT OF THE SHADOW ECONOMY ON THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 585-590.
34. Aslanova, D. (2025). APPLICATION OF INVESTMENT PROGRAMS IN TOURISM DEVELOPMENT. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 874-878.
35. Izatova, N. (2025). ISSUES OF IMPROVEMENT OF PROFESSIONAL AND PERSONAL QUALITIES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF ECONOMIC EDUCATION. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 294-296.
36. Jumayev, B. (2025). BIG DATA: CUSTOMER CREDIT ANALYSIS USING DIGITAL BANKING DATABASE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 1056-1059.